

ISSN: 2181-1040  
DOI: 10.26739/2181-1040  
tadqiqot.uz/renaissance



# JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL  
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6 |  
ISSUE 1**

**2025**

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE  
VOLUME 6, ISSUE 1



## Бош муҳаррир:

### МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

#### Бош муҳаррир ўринбосари:

#### ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо  
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

#### Бош муҳаррир ўринбосари:

#### ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

#### МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,  
профессор (Ўзбекистон)

#### ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий  
академияси академиги, санъатшунослик фанлари  
доктори, профессор (Ўзбекистон)

#### МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари  
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

#### ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

#### ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий  
ва инновация ишлари бўйича проректори,  
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

#### КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари  
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

#### АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги СЕУ университети  
профессори (Испания)

#### ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги  
Ўзбекистон Миллий университети  
халқаро ишлар бўйича проректори,  
филология фанлари доктори,  
профессор (Ўзбекистон)

#### КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,  
тарих фанлари доктори (АҚШ)

#### ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети  
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

#### ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети “Фалсафа” кафедраси  
муdiri, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

#### МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

#### САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти  
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

#### ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий  
университети доценти, педагогика фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

#### ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

#### МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

#### ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

#### РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Главный редактор:

**МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА**

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## Заместитель главного редактора:

**ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА**

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент  
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## Заместитель главного редактора:

**ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ**

доктор философских наук (PhD), Национальный  
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

## ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ**

Ректор Национального университета Узбекистана,  
профессор (Узбекистан)

**ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ**

Академия наук Узбекистана,  
академик Академии художеств Узбекистана,  
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

**МАРИАННА КАМП РУТЦ**

профессор Центра Евразийских исследований  
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

**ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ**

Профессор ISFT института,  
доктор политических наук (Узбекистан)

**ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ**

проректор по научным исследованиям и инновациям  
Международной исламской академии Узбекистана,  
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

**КЛЭР РООСИЕН**

PhD доктор кафедры  
Славянских языков и литературы  
Йельского университета (США)

**АНТонио АЛОНСО МАРКОС**

профессор Университета  
CEU имени Сан Пабло (Испания)

**ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА**

проректор по международным связям  
Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,  
профессор (Узбекистан)

**КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ**

профессор Университета Хофстра,  
доктор исторических наук (США)

**ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ**

профессор кафедры религиоведения и культурологии  
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,  
доктор философских наук (Казахстан)

**ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА**

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского  
государственного университета, кандидат  
философских наук, профессор. (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ**

профессор Наманганского инженерно-технологического  
института, доктор философских наук (Узбекистан)

**САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА**

Навоийского государственного педагогического института,  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

**ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ**

доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)  
по педагогическим наукам (Узбекистан)

**ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА**

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философии  
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

**МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ**

доцент Наманганского государственного университета, доктора  
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

**ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ**

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо  
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)  
(Узбекистан)

**РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ**

докторант кафедры Философии и логики Национального  
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## Chief Editor:

### **MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor  
The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## Deputy Chief Editor:

### **YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA**

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,  
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## Deputy Chief Editor:

### **KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH**

Doctor of Philosophy (PhD), National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

## MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

### **MADJIDOV INOM URUSHEVICH**

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

### **KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH**

Academy of Sciences of Uzbekistan,  
Academician of the Academy of  
Arts of Uzbekistan, Doctor of  
Art History, Professor (Uzbekistan)

### **MARIANNE KAMP RUTZ**

Professor of the Center for Eurasian Studies  
at Indiana University, Doctor of History (USA)

### **DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH**

Professor of the ISFT Institute,  
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

### **ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH**

Vice-Rector for Research and Innovation of the  
International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

### **CLAIRE ROOSIEN**

Department of Slavic Languages and Literature  
of the Yale University, PhD (USA)

### **ANTONIO ALONSO MARCOS**

Professor of the University of CEU  
named after San Pablo (Spain)

### **SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA**

Vice-Rector for International Affairs of the National  
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

### **KARIMOV ELYOR ERIKOVICH**

Professor of the Hofstra University,  
Doctor of Historical Sciences (USA)

### **GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH**

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

### **YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA**

the head of the "Philosophy" department of Andijan  
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

### **MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH**

Professor of the Namangan Institute of Engineering  
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### **SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA**

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor  
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

### **INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH**

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

### **JURAEVA NIGORA AVAZOVNA**

Associate Professor of the National University  
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

### **MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH**

Associate Professor of Namangan State University,  
Doctor of Philosophy (PhD) on  
Sociological Sciences (Uzbekistan)

### **SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH**

The National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

### **RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI**

doctoral student of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Akmal Jumanazarov, Noibaxon Mamadalieva</b> AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATIDA O'LCHASHLARNING QO'LLANILISHI.....	7
<b>2. Fayzixodjayeva Dilbar Irgashevna</b> SOHIBQIRON AMIR TEMUR QARORLARINING MANTIQUIY ASOSLANISHI.....	15
<b>3. Karimov Elyor Erikovich, Madayeva Shahnoza Amanullaevna</b> POSTJADIDCHILIK DAVRIDA O'ZBEK IDENTIKLIGINING SHAKLLANISHI.....	21
<b>4. Nilufar Tuychiyeva Maxsutjanovna</b> TASAVVUF ILMI RIVOJIDA ABU NASR SARROJNING O'RNI.....	30
<b>5. Джураева Нигора Авазовна</b> СИСТЕМНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПАРАДИГМЫ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА И КАЗАХСТАНА.....	40
<b>6. Yusupova Dildora Dilshatovna</b> YAQIN SHARQ MAMLAKATLARIDA ISLOMNING SIYOSIYLASHUVI VA UNING O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA TA'SIRI.....	49
<b>7. Madayeva Mu'tabarxon Amanullayevna</b> "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA ARABCHA SO'ZLAR VA BADIY SAN'ATLARNING UYG'UNLIGI.....	55
<b>8. Xojiev Tunis Nurkosimovich</b> YANGI MODERNIZATSIYA KONSEPSIYALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI...	61
<b>9. Jo'rayev Anvar Muhammadiyevich</b> IJTIMOIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI.....	69
<b>10. Bultakov Begzod Abdurasulovich</b> INTERNETDA MILLIY KONTENTNING OMMALASHUVI: O'ZBEK MADANIYATI VA TILINING RAQAMLI MAKONDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	79
<b>11. Norboyev Javlon Akbarali o'g'li</b> IBN AL-ARABIYNING VAHDAT UL-VUJUD TA'LIMOTIDAGI PANTEISTIK QARASHLAR VA KLASSIK PANTEIZM.....	86

ISSN: 2181-1040


www.tadqiqot.uz

**МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ****ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**  
**JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Norboyev Javlon Akbarali o'g'li**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Falsafa yo'nalishi magistranti

E-Mail: norboyevjavlon2101@gmail.com

**IBN AL-ARABIYNING VAHDAT UL-VUJUD TA'LIMOTIDAGI PANTEISTIK  
QARASHLAR VA KLASSIK PANTEIZM** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15126850>**ANNOTATSIYA**

Umaviylar xalifaligi davrida paydo bo'lgan tasavvuf falsafiy-diniy ta'limotgina bo'lib qolmasdan moddiy va dunyoparastlik sabab oxiratni esdan chiqarganlarga qarshi kurashish maqsadida tashkil topgan ijtimoiy harakat shakli ham edi. Tasavvuf ilk islom davrida paydo bo'lib, islom diniga yangi joziba va ma'naviy yangilanish bag'ishladi. Tasavvufshunos olimlar, sufiylar, irfon ilmining yetuk namoyondalari tomonidan yaratilgan falsafiy, diniy va irfoniy ta'limotlar butun musulmonlarning ma'naviy va intellektual olamiga sezilarli ta'sir qilganiga tarix guvoh. Ushbu olimlardan biri bo'lmish Ibn al-Arabiyning "vahdat ul-vujud" nazariyasi Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-falsafiy tafakkurini shakllantirishda beqiyos o'ringa ega bo'lib kelgan. Shuningdek, ushbu ta'limotning ildiz g'oyalari bugungi ijtimoiy-siyosiy tahlikalarga boy bo'lgan globallashgan olamda yashayotgan insonni ruhiy majruhlikdan va har xil ma'naviy bo'xronlardan himoya qilish bilan birga uning ma'naviy olamini yuksaltiradi.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, ilohiyot, islom va klassik panteizm, "vahdat ul-vujud", tajalliy (emanatsiya), Xudo, atribut, moduslar.

**Norboyev Javlon Akbarali ogli**

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Master's student in Philosophy

E-Mail: norboyevjavlon2101@gmail.com

**IBN AL-ARABI'S PANTHEISTIC VIEWS IN THE DOCTRINE OF WAHDAT AL-WUJUD  
AND CLASSICAL PANTHEISM****ABSTRACT**

During the Umayyad Caliphate, Sufism was not only a philosophical and religious doctrine but also became a social movement aimed at combating materialism and worldly distractions, which diverted people from spiritual values and the afterlife. Emerging in the early Islamic period, Sufism brought a new spiritual strength and inspiration to Islam. History demonstrates the significant influence of philosophical, religious, and mystical teachings developed by Sufi scholars and mystics on the intellectual and spiritual world of Muslims throughout various historical epochs. One such scholar is Ibn al-Arabi, who played an unprecedented role in shaping the socio-philosophical thought of the peoples of Central Asia with his theory of wahdat al-wujud (the unity of God and existence). Moreover, the fundamental ideas of this teaching continue to protect individuals in the modern

globalized world, marked by socio-political crises, from inner suffering and moral crises, elevating their spirit.

**Keywords:** Sufism, theology, Islam and classical pantheism, wahdat al-wujud, tajalli (emanation), God, attribute, modes.

**Норбоев Жавлон Акбаралиевич**

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Магистрант по направлению Философии

E-Mail: norboyevjavlon2101@gmail.com

## ПАНТЕИСТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН АЛЬ-АРАБИ В УЧЕНИИ ВАХДАТ АЛЬ-ВУДЖУД И КЛАССИЧЕСКИЙ ПАНТЕИЗМ

### АННОТАЦИЯ

Во времена Омейядского халифата суфизм был не только философско-религиозным учением, но и стал общественным движением, направленным на борьбу с материализмом и мирской суетой, отвлекающими людей от духовных ценностей и загробной жизни. Возникнув в ранний исламский период, суфизм привнес в ислам новую духовную силу и вдохновение. История свидетельствует о значительном влиянии философских, религиозных и мистических учений, разработанных суфийскими учеными и мистиками, на интеллектуальный и духовный мир мусульман в разные исторические эпохи. Одним из таких ученых является Ибн аль-Араби, сыгравший беспрецедентную роль в формировании социально-философской мысли народов Центральной Азии благодаря своей теории вахдат аль-вуджуд (единство бога и бытия). Более того, фундаментальные идеи этого учения продолжают защищать человека в условиях современного глобализированного мира, отмеченного социально-политическими кризисами, от душевных страданий и моральных кризисов, возвышая его дух.

**Ключевые слова:** Суфизм, теология, ислам и классический пантеизм, вахдат аль-вуджуд, таджалли (эманация), Бог, атрибут, модусы.

**Kirish.** Islom falsafiy tafakkur hayotini tasavvufsiz tasavvur qilib bo‘lmagani kabi tasavvuf olamini ham eng ulug‘ Shayx nomi bilan shuhrat qozongan sufiy Muhyiddin Ibn al-Arabiysiz talqin va tahlil qilish imkonsiz. Ibn al-Arabi hijriy 560 (milodiy 1165) yilda Andalusiyaning Mursiya shahrida tavallud topgan. Ibn al-Arabi Andalusiya, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq bo‘ylab qilgan uzoq safarlaridan keyin Damashqda yashab qoldi va o‘sha yerda 638-hijriy (milodiy 1240) yilda olamdan o‘tdi. Uning sufiylar safiga qo‘shilishi Olamriyoda ro‘y bergan degan taxminlar bor. Chunki bu shaharda Andalusiyaning mashhur faylasufi Ibn Massaraning maktabi rivoj topgan edi [1]. Ibn Arabiyning o‘tmishdoshlari Ibn Massaradan tashqari, Termiziy, Vositiy, shuningdek, zamondoshi va ustozlari Ibn Rushdlarni ko‘rsatib o‘tish lozim.

Bir necha manbalarda keltirilishicha, Ibn Arabiy tush ko‘ribdi va unda Mashriq tomonga safar qilish haqida unga ko‘rsatma berilibdi. Shuning uchun hijriy 597-yili (milodiy – 1201) Makkaga keladi va u yerda “farmon oladi” ki, o‘zining yirik asari bo‘lgan “Al-futuhot ul-Makkiya” (Makka sirlarining ochilishi) ni yoza boshlaydi. So‘ngra bir qiz bilan tanishib, unga uylanadi. Bu qiz eroniyarlardan bo‘lib, sufiy tariqatida edi. Ibn Arabiy Makkadan chiqib, Mosul, Kunyo, Bag‘dod va Qohira orqali hijriy 620-yilda (milodiy 1223) Damashqqa kelgan.

“Muhyiddin Ibn al-Arabiyning yozma merosi turli xil manbalar va tadqiqotchilar tomonidan uch yuzga yaqin deb taxmin qilinadi, ammo o‘zi esa ularni ikki marta ko‘proq deb ta’kidlaydi. Uning asarlari hajmiga ko‘ra, bir-biridan farq qiladi: u ikki-uch betli risola ham, ko‘p jildli asarlar ham yozdi, masalan, Qur‘onga tugallanmagan tafsir va ko‘p jildli “Futtuhot al-Makkiyya” (Makka g‘alabalari), “Fusus al-Hikam” (Hikmatlar jilosi), “Kitob as-sab‘a” (Yetti hikmat kitobi), “Mafotih al-g‘ayb” (G‘ayb kalitlari), “Kitob alhaq” (Haqiqat kitobi) kabi asarlarini yozgan [2, 112]. Uning yuqorida keltirilgan ikki yirik kitoblari bo‘lmish “Futtuhot al-Makkiyya” va “Fusus al-Hikam” asarlaridagi bosh mavzu Muhyiddin Ibn al-Arabiyning eng mashhur qilgan ta’limotlaridan biri

bo‘lmish “vahdat ul-vujud” falsafiy-diniy ta’limoti atrofida aylanadi va ushbu manbalar islom ilohiyotida yangi davr – islom panteizmiga asos solganligi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, unda Ibn al-Arabiyning “vahdat ul-vujud” ta’limoti va klassik panteizm o‘rtasidagi tafovutlarni yoritish orqali, zamonaviy falsafa va ilohiyot falsafasidagi metafizik yondashuvlar klassifikatsiya qilishga harakat qilingan, shuningdek uning ushbu ta’limoti klassik naturalistik panteizm emasligi balki sof tavhid ustuvor bo‘lgan falsafiy-diniy qarashlar tizmasi ekanligi ochib berilgan, Musulmon olamida ma’lum va mashhur bo‘lgan Ibn al-Arabiyning falsafiy qarashlari bir necha bor tadqiq qilingan bo‘lishiga qaramasdan, ushbu maqolada klassik panteizm namoyondalarining panteistik qarashlari bilan uning butun borliq yagonaligi to‘g‘risidagi fikrlarini taqqoslash orqali Sharq va G‘arb falsafiy an‘analari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish hamda musulmon diyorining tasavvufiy, irfoniy va falsafiy qarashlarining jahon falsafiy tafakkur maydonidagi ahamiyati va o‘rnini ko‘rsatishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Maqolani yozishda G‘arb va Sharq olimlari, shuningdek O‘zbekistondagi sharqshunos tadqiqotchilarning monografiya, maqola, va tezislari metodik manba bo‘lib xizmat qildi. Ushbu maqolada tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez prinsiplariga tayangan holda qiyosiy-komparativistik tahlildan foydalanildi. Shuningdek, maqolada Muhyiddin Ibn al-Arabiyning falsafasidagi panteistik qarashlarning klassik panteizm namoyondalarining g‘oyalaridan farqli va o‘xshash jihatlari ham tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot ularning metodologiyasi, epistemologiyasi va diniy matnlarga munosabatidagi farqlardan xabardor bo‘lgan holda olib borildi. Klassik panteizm namoyondalaridan farqli ravishda Ibn al-Arabiyy tasavvufshunos faylasuf bo‘lib, haqiqatni anglash uchun ham ratsional, ham intuitiv bilimga tayanadi. Uning uchun haqiqiy bilim manbayi aql emas, balki metafizik olamga yetib borishga qodir ilohiy qalbdir. Shuning uchun ham Ibn al-Arabiyy o‘z g‘oyalarini mantiqiy-ratsional bahslar orqali emas, balki tasavvufiy yo‘nalishda ifoda etadi

**Natija va muhokama.** Insoniyat tomonidan yaratilgan eng ilg‘or va keng muhokamaga sabab bo‘lgan ta’limotlardan biri, “vahdat ul-vujud” hisoblanadi. Ushbu ta’limot asoschisi – Ibn al-Arabiyydir. U tasavvuf va sufiylik olamiga o‘z o‘zidan kirib kelgani yo‘q. U zamondoshi va ustozi bo‘lmish Ibn Rushdning, shuningdek, tarixiy manbalarga ko‘ra, Hakim at-Termiziyning falsafiy ta’limot va g‘oyalarini chuqur o‘rgangan holda, ilohiyotshunoslikka qiziqishi uyg‘ongan. Ibn al-Arabiyy o‘zining shox asarlaridan biri bo‘lmish, “Fusus al-Hikam” (Hikmatlar jilosi) kitobini yozishda tasavvufshunos va ilohiyotchilar qatori Hakim at-Termiziy asarlaridan ham foydalangani haqida J. S. Trimingem o‘zining “Суфийские ордены” (“Sufiylik tariqatlari”) asarida qimmatli ma’lumotlar bergan [3].

“Fusus al-Hikam” asari juda ko‘p sharhlarga ega bo‘lib, ba’zi manbalarga ko‘ra, ularning soni 35 tadan 120 tagacha deb ko‘rsatiladi, jumladan, “Islom buyuk doirat ul-maorifi” kitobida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Usmon Yahyo unga 120 ta sharh yozilganligini ta’kidlaydi [4].

Ibn al-Arabiyy o‘zining “Hikmatlar jilosi” (“Fusus al-Hikam”) asarida bayon etgan islom panteizmi bo‘lmish, “vahdat ul-vujud” falsafasining dunyoga kelishi o‘z-o‘zidan ro‘y bermadi, albatta. Ushbu ta’limot, avvalo, Qur‘on, kalom ilmining hamda turli xil o‘rta asr islomshunos va ilohiyotshunos olimlari Hakim at-Termiziy, Sharq mashoyunchlari Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino, arab olimlari Ibn Rushd va boshqa tasavvufshunos olimlari maktablarining vakillari yaratgan teologik g‘oyalarning, shuningdek, yunon falsafasi, platonizm va neoplatonizm vakillari tomonidan yaratilgan falsafiy-irfoniy g‘oyalarning ham ta’siri sezilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Vahdat ul-vujud” falsafasi bu “borliq birligi” yoki “vujud birligi” deb talqin qilinadi, ammo bu klassik panteizm kabi Xudo va tabiat birlashuvi emas. Panteizm va “vahdat ul-vujud” ta’limotlari bir-biriga qanchalik o‘xshasa, ularni o‘ziga xos farqli jihatlari ham bor. Ayniqsa buni Ibn al-Arabiyning “vahdat ul-vujud” ta’limoti juda ko‘p muhokama-yu bahslarga sabab bo‘lishiga qaramasdan, unda sof islomiy tavhid kuchli ekanligida ko‘rishimiz mumkin.

Shu o‘rinda o‘rinli savol paydo bo‘ladiki: “Vahdat ul-vujud” ta’limoti to‘laqonli naturalistik panteizmi? Javob esa yo‘q, butunlay klassik naturalistik panteizm emas, balki sof islomiy tavidga tayangan Xudoning mavjudligi to‘g‘risidagi ham diniy, ham falsafiy qarashlar to‘plami deyish ham mumkin.

Eng ulugʻ shayx deb nom qozongan Muhyiddin Ibn al-Arabiyning butun borliq birligi - vahdat ul-vujud nazariyasida vujudan olam ayro elementdir. Shuning uchun olam vujudni tashkil qilolmaydi. Demak, u “Mutlaq Vujud” dan bir narsadir: “Olam Haqning ayni oʻzi emas. U butunlay Haq vujudida zohir boʻlgan bir narsadir” [5]. Islomning sunniy mazhabiga eʼtiqod qiluvchilar esa bu tushunchalarni quyidagicha talqin qiladi:

1. Vujud-ul vojib – Xudoning yakka mavjudligi;
2. Vujud-ul mumkin – Xudo xohishi bilan mumkin boʻlganlar;
3. Mumtaneʼ ul-vujud – yaralashi mumkin boʻlmaganlar; [2, 114]

Uning vujud tushunchasining naturalistik panteizm va islomning sunniy mazhablaridan farqli jihati shundaki, unda olam va borliq alohida kategoriyadir.

Muhyiddin Ibn al-Arabiyning “vahdat ul-vujud” falsafasi logos (soʻz) nazariyasiga bogʻliq keladi. Uning fikricha, soʻz bu ilohiy haqiqat paygʻambar jamolining jilvasidir. Yaʼni ilohiz zot oʻsha soʻzlar orqali oʻzini namoyon etadi, chunki uning vujudi (borligʻi) berkingan. Uning borligʻi yakka boʻlishiga qaramasdan, uning sifatlari va xususiyatlari jihatdan esa koʻplikdir. Chunki u olamlar va undagi jamiki yaratilqlar yaratuvchisi, bu uning fitratida mujassam boʻlgan “Xoliqlik” hisoblanadi. Ibn Arabiy “Ayoni sobita” deb atalgan mahluqot aslida azaliylik namunalarning bir ipi sifatida ilohiy ilmda mavjud edi. Ammo Xudo yashirin qolgan edi, endi esa oʻzini oshkor qilishni xohladi. Shuning uchun uning nisbati mahluqot bilan xuddi oyina va tasvir yoki soya bilan siymo, yoki boʻlmasa, koʻplik bilan birlik munosabatida edi. Uni ushbu jahonni yoʻqlikdan borlikka chiqarishga undagan narsa “Ishq” edi. Xuddi hadisda keltirilganidek: “Men bir yashiringan ganjina edim, xohladimki, oʻzimni tanitsam (Ibn Arabiy. Fusus al-hikam, B.78)” [6,101].

Boshqa musulmon olimlarining falsafiy, diniy, irfoniy va tasavvufiy taʼlimotlari, jumladan, Ibn al-Arabi va keyinchalik uning izdoshlari taʼlimotlarini yaratishda tayanadigan asosiy yoʻl boʻlib koʻrinadi. “Biroq, ular taʼlimotlariga mantiqiy shakl berish uchun muqarrar ravishda falsafiy dialektikaning bir shakliga murojaat qilishga majbur boʻlishgan. Ibn al-Arabiyning holatida bu dialektika Allohning mavjudligini isbotlashga intilmaydi, chunki Xudo (U) har qanday isbotdan yuksakdir” [6, 474]. U oʻz mavjudligining yagona isbotidir va bu mavjudlik oʻtkinchi mavjudotlarning mohiyatlarida (aʼyān) namoyon boʻladi. Hamisha va har joyda mavjud boʻlgan zotning mavjudligini qanday qilib isbotlash mumkin? Albatta, isbotga ehtiyoj yoʻq, faqat Alloh (Mutlaq kuch) bor, Undan boshqa hech narsa mavjud emas, hammasi uning ixtiyori ila unda mavjud.

"Kimdan qochyapsan va mavjudotda Undan (Xudo) boshqa hech narsa yoʻq?" Mening koʻzim Uning yuzidan (mohiyatidan) boshqa hech narsani koʻrmaydi va qulogʻim Uning soʻzidan boshqa hech narsani eshitmaydi" – ushbu dialektika Ibn al-Arabiya mansub boʻlib, u bu yerda Allohni yagona birligi yoki undan oʻzga narsalar usiz mavjud boʻlolmasligini isbotlashga harakat qilayotgani yoʻq, u uchun bu mutlaq, isbot talab qilmas haqiqatdir. Ibn al-Arabiyning ushbu dialektikadagi yagona maqsadi inson aqlining ichki zaifligini va umumiy mohiyatni yaxlit koʻra olmasligini koʻrsatishdan, shuningdek, hodisij obyektning koʻpligi oʻz mohiyatida haqiqatga ega emasligini, balki biz ularni tushunish usulimiz sababli koʻplik shaklida koʻrinishini isbotlashdir.

A. Knishning “Ibn ʼArabi in the Later Islamic Tradition: The Making of a Polemical Image in Medieval Islam” asari Ibn al-Arabi taʼlimotlari, xususan, “vahdat al-vujud” gʻoyasi atrofida bahs-munozaralarni oʻrganishga bagʻishlangan. Ushbu asarda Knish, Ibn Taymiyaning Ibn al-Arabiya boʻlgan munosabati va uning “vahdat al-vujud” gʻoyasiga qarshi tanqidlarini batafsil tahlil qiladi. Knishning taʼkidlashicha, Ibn Taymiya “vahdat al-vujud” gʻoyasini islomiy monizm deb atab, bu qarashni islomiy aqidaga zid deb hisoblagan. Uning fikricha, bu gʻoya Allohning yagona va mutlaq mavjudligini inkor etib, mavjudotlar bilan Alloh oʻrtasidagi farqni yoʻq qiladi.

A. Knishning ushbu asarida Ibn al-Arabi taʼlimotining keyingi islomiy anʼanalarda qanday talqin qilingani ham batafsil tahlil qilinadi. U asarini keyingi qismlarida “vahdat al-vujud” atamasining qanday shakllanganiga eʼtibor qaratadi. Ibn al-Arabi hayotligida u hech qachon oʻz taʼlimotini bu nom bilan atamagan, biroq keyinchalik uning izdoshlaridan baʼzilari bu tushunchani rivojlantirdi va uni tasavvufiy taʼlimotning markaziy gʻoyalaridan biriga aylantirdi. Knishning fikricha, Ibn al-Arabi

va uning tarafdorlari tomonidan ilgari surilgan metafizik qarashlar, ayniqsa, Usmonlilar, Eron Safaviylari va Hindiston Mug‘ullari davrida keng tarqalgan. Uning asarlari turli falsafiy hamda fiqhiy maktablar tomonidan har xil talqin qilinib, ba’zida mutlaq monizm sifatida, ba’zan esa sof tasavvufiy haqiqat sifatida tushunilgan. Shuningdek, Knish Ibn al-Arabiy ta’limotining ijobiy va tanqidiy qabul qilingan jihatlarini ham yoritadi. Masalan, Naqshbandiylik tariqati vakillari va ayrim sunniy ulamolar uning fikrlariga ehtiyotkorona yondashgan bo‘lsa, boshqa bir qator sufiylik oqimlari uni mutlaq haqiqat ifodalovchisi sifatida qabul qilgan. Shu bilan birga, salafiy an’analarga asoslangan ulamolar, ayniqsa, Ibn Taymiyya va uning izdoshlaridan Muhammad ibn Abdulvahob, Ibn al-Arabiy ta’limotlarini qattiq tanqid qilgan [7].

Muhyiddin Ibn al-Arabiyning “vahdat ul-vujud” ta’limotini maqolaning birinchi qismida to‘laqonli klassik naturalistik ruhdagi panteizm sifatida emas, balki sof islomiy tavhid asosiga qurilgan tasavvufiy ta’limot deb baholadik.

Xo‘sh, Ibn al-Arabiyning “vahdat ul-vujud” ta’limoti klassik panteizmdan qaysi jihatlarini bilan farq qiladi-yu, qaysi nuqtalarda ular kesishadi? Ushbu savolga javob berish uchun “vahdat ul-vujud” falsafiy-diniy ta’limotini klassik panteizm namoyondalaridan bo‘lmish, Pliffon, Fichino, Kuzanskiy va Spinozalarning panteistik qarashlari bilan qiyoslash orqali ularning o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilamiz.

Italiyalik neoplatonchi faylasuf Georgiy Gemist Pliffonning panteistik qarashlariga ko‘ra, Xudo butun borliqni yaratdi, ammo borliq abadiy va o‘zgarmas - hech qachon yo‘q bo‘lmas, shu sababli yaratuvchi zot uni bir vaqtda yaratmagan. Uningcha, har bir narsa koinot, hatto Xudoning o‘zi ham ma’lum bir zaruriyatga bo‘ysunadi. Bu masalada u neoplatonchilarning emanatsiya ta’limotiga suyanmasdan, qadimgi yunon Xudolariga murojaat qiladi. Uningcha, bu oliy Xudo Zevsga bog‘liq, lekin olam bevosita emas, balki alohida tabiat substansiyasi – mohiyati orqali vujudga keladi. Bu mohiyat alohida xususiyatga ega. Xudo va tabiat cheksizligining bu tarzda talqin etilishida panteizm g‘oyalarining ilk ko‘rinishlari mushohada etiladi. Uning fikriga qaraganda, olam o‘zining mutanosib yaxlitligi va yagonaligida go‘zaldir. Uning ilohiyligi ham shunda namoyon bo‘ladi. Insonning borlig‘ini anglash – bu uyg‘unlik va muvozanatni birlashtiruvchi bog‘lovchi halqa sifatida qarashdir. Agar inson o‘ziga, tabiatga va butun olamga nisbatan shu muvozanatni, ya’ni go‘zallikni namoyon eta olsa, u yuksak ma’naviy mohiyat kasb etadi. Ibn al-Arabiyning falsafiy qarashlari Pliffonnikidan tubdan farq qiladi, Pliffonning butun olamni Xudo yaratadi degan fikri Ibn al-Arabiynikiga o‘xshash bo‘lsa ham, lekin uning borliq o‘zgarmas, harakatsiz, va abadiy, shuningdek, Xudo ham ma’lum bir zaruriyatga bo‘ysunadi, degan qarashi haqiqiy naturalistik panteizmdan boshqa narsa emas.

Marsilio Fichino ham o‘zining panteistik qarashlarida Xudo olamni yaratgandan keyin, uni chetdan kuzatadi va hech narsaga aralashmaydi, deb aytadi. Fichino ham Kuzanskiy kabi Xudo va tabiat yagona birlikni tashkil etishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ushbu borliq asta-sekin rivojlanib borib, ilohiy kuch tomonidan boshqariladi. Fichino fikricha, borliq bir necha bosqichlarga bo‘linadi:

1. Modda (hajm va ma’lum bir og‘irlikka ega bo‘lgan materiya)
2. Sifat
3. Ruh ya’ni jon
4. Farishtalar (ilohiy olam vakillari)
5. Mutlaq Kuch ya’ni yagona Xudo

Bu bosqichlar Ibn al-Arabiyning “Hazaroti xams” nazariyasi “besh bosqich” ga o‘xshash. Fichinoda birlik va ko‘plik bir-biridan alohida tushunchalar olami emas, Xudo eng oliy bosqichdan quyidagi bosqichlarga nur taratadi va butun borliq yorishadi, shu nur parchasi butun olamlarga yetib boradi, jumladan, Yerga ham. Bu esa Xudo mavjudligini isbotlaydi. Fichino qarashlarida panteizmning mistik ruhiyati ufurib turadi. Fichinocha panteistik dunyoqarashda faqatgina Xudo olamda emas, balki olam ham Xudoda tajalliy etadi. Ushbu qarashlar Ibn al-Arabiyning fikrlariga ziddir.

Yana bir mashhur faylasuf Germaniyaning Kuza qishlog‘ida tug‘ilgan Nikolay Kuzanskiyni neoplatonizm va panteizmning yetuk namoyondasi sifatida yaxshi bilamiz. Uning asosiy panteistik yondashuvlari Xudo, uning borliqdagi o‘rni va funksiyasi to‘g‘risida edi. Uning talqini sxolastik falsafadan tubdan farq qilib, Xudoni mutlaq Yaratuvchi va barcha mavjudotlarning vujudga

kelishidagi yagona sabab sifatida ko'rsatadi. U olamlarni yaratgan va shu olam ichida yashirin holda mavjud. Boshqacha aytganda, olam va Xudo yaxlit bir borliqni tashkil etadi hamda u barcha narsalarning mohiyatidir. Kuzanskiy xristian e'tiqodidagi Troitsa – Xudoning uch qiyofada namoyon bo'lishi konsepsiyasini tanqid qilar ekan, uni ko'proq ruhiy qudrat, tabiatda yashiringan muqaddas ruh sifatida tasavvur etadi. Uning qarashicha, barcha mavjudotlar va tabiiy hodisalarda Muqaddas Ruhning tajallisi ko'rinadi. Kuzanskiy “Xudoni o'rta asrga xos ortodoks sxolastik talqin qilishdan chekinib, antik panteizmga yaqinroq bo'lgan g'oyani ilgari suradi va Xudoni dipersonalizatsiya qiladi. Xudo “o'zgacha”, “borliq va imkoniyat”, “o'zi imkoniyat” eng muhimi absolyut maksimum kabi cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatib o'tadi” [8, 294]. Nikolay Kuzanskiyning talqiniga ko'ra, Xudo insonning odatiy ratsional va mantiqiy fikrlash doirasidan tashqaridadir, uni anglash esa e'tiqod va irratsional ishonch natijasida bo'ladi.

1. Xudo – hamma narsalarda mavjud, hech narsa undan tashqarida mavjud bo'lolmas.
2. Xudo – olamlar egasi. Bir vaqtda yaratuvchi va yaraluvchi, sabab va oqibat birligidir.
3. Olamda sodir bo'ladigan hamma hodisalar, voqealar, holatlar Xudoga borib taqaladi. Mohiyat ham, maqsad ham Xudo. Bu vahdatdir (birligidir).

Shuningdek, Xudoni tabiatning tajalliysi, ya'ni nurlanishi, ta'sirlanishi sifatida biladi va u tomon qancha imkoniyatlar ko'p ochilsa, yashiringan borliq shuncha ko'proq yuzaga chiqadi. Ibn al-Arabiy va Nikolay Kuzanskiy falsafasidagi panteistik qarashlarning kesishadigan nuqtasi - bu emanatsiya (tajalliy) g'oyasidir. Ba'zi bir manbalarda, bevosita yoki bilvosita Kuzanskiyning bu fikrga Ibn al-Arabiyning tajalliy nazariyasidan ilhomlangan holda yuzaga kelgan bo'lishi mumkinligi haqidagi qarashlar yo'q emas.

Ibn al-Arabiy nazariyasi bo'yicha, Mutlaq Vujud – Alloh taolo ilohiy nur shaklida yo'qlik olamidan borliq olamiga jilolanadi hamda borliqdagi moddiy va nomoddiy narsalarning qobiliyatlari imkoniyatlariga yarasha ularda namoyon bo'ladi. Ashyolar va mavjudotlarning qobiliyat va imkoniyatlari qancha keng bo'lsa, yashiringan narsalar o'sha daraja va miqdorda ko'rinishga ega bo'ladi. Ibn al-Arabiy nigohida Xudo, tabiat va koinotni bir marta yaratib qo'yib o'z holiga tashlab qo'ymaydi, balki yaratish va yaralish jarayoni har bir soniya va lahzada izchil va uzluksiz davom etadi. Ana shu jarayonlar bu Parvardigorning xoliqlik kuchidan dalolatdir. Ana shu doimiy, to'xtovsiz yaratishlar va yaralishlar natijasida olam muntazam ravishda yangilanib turadi, moddiy va nomoddiy borliqda shakllanish va takrorlanish, ko'payish va kamayish (vahdat va kasrat), rivojlanish va taraqqiy etish, faoliyat va harakat kabi hodisalar yuz beradi. Kuzanskiy ham shunga o'xshash fikrni takrorlaydi: olamning yaratilishlari o'rgimchakning o'z ichidan to'r to'qishiga o'xshab ketadigan jarayondir. Butun olam Xudoning ichida doim imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan, bu yashiringan mavjudlik yaratish jarayonida yuzaga chiqadi. Xudoning mavjudligi yashirin imkoniyatlarining ochilish jarayonida boshlanadi. Ushbu nihoyasi yo'q imkoniyatlar tufayli Xudo yashiringan sahna ochiladi, va olam yaralishiga sabab bo'ladi. Ibn al-Arabiy borliqdagi barcha narsalar va hodisalar mohiyatida Mutlaq Vujud – Parvardigorning sifatlarini ko'rsa, Kuzanskiy ham uni quvvatlagan holda koinotdagi jamiki hodisalar va narsalarda Mutlaq Kuch ya'ni Xudoning jamolini turfa xil mohiyatlarda namoyon bo'ladi. Ya'ni Xudo sifatleri va imkoniyatlari nuqtai nazardan kasrat olamiga mansub. Bu esa uning qudratini ifodalaydi. Kuzanskiy Xudo borlig'i haqidagi kuzatishlari Ibn al-Arabiy g'oyalariga yaqin. “Vahdat ul-vujud” falsafasidagi kasrat olamining vahdat olamida tajalliy etishi, ya'ni olamdagi barcha narsalar va hodisalarning Mutlaq vujudga aks etishiga asoslangan ushbu g'oya kasrat olami aslida vahdat olamidan vujudga kelganini anglatadi.

Xudo yaratgan eng buyuk yaratq inson bo'lganidek, uning tabiati esa eng buyuk borliqdir. Shunday ekan, ul tabiatdagi barcha narsalar, yaratilqlar va jamiki yaralmalar birlashib, yakka-yu yagona borliqni tashkil etadi, shu sababli odam tabiatida Allohning yagona borlig'i mujassam. Ahamiyatli jihati shundaki, hatto inson ham bu yashiringan borliqni to'laqonli ocholmaydi, ammo ba'zi bir qismlarini namoyon qilishi mumkin. Nikolay Kuzanskiy va Ibn al-Arabiyning nazdida, o'sha butun borliq inson tabiatida ko'rinishi uchun inson ilohiy atributlarga ega bo'lishi kerak, bular Xudo tomonidan beriladi yoki yuqtiriladi. Xristianlik e'tiqodiga tayangan holda, Kuzanskiy bu ilohiy kuch Iso Masihga, Ibn al-Arabiy esa islom nuqtai nazaridan kelib chiqib, yagona borliqni Muhammad Payg'ambar (Haqiqati Muhammadiya) da mujassam bo'lgan deb ta'kidlaydi. Nikolay Kuzanskiyning

e'tiqod va bilim masalasiga butunlay panteistik tarzda yondashadi, Xudo tabiatda o'zini tajalliy etadi va tabiat, ya'ni olam uning ko'rinishidir.

Nikolay Kuzanskiy falsafasida bilimning subyektivi va obyektivi bir-biriga o'tadi va birlashadi. Bilish jarayoni cheksiz jarayon bo'lib, bu jarayonda tafakkur haqiqatni to'la bilishga intiladi, ammo unga yetisha olmaydi. Kuzanskiyning fikricha, tafakkurning haqiqatga intilishi ko'p burchakli shaklning doiraga intilishiga o'xshaydi, ko'p burchakli shaklning burchaklari ko'payib borgan taqdirda ham doira shakliga aylanmaydi. Xuddi shunday inson tafakkuri ham Mutlaq haqiqatga erisha olmaydi. Bu fikr ham Ibn al-Arabiyning "Inson tafakkuri Alloh taoloning zotini anglashga qodir emas, ya'ni inson aql-tafakkur yordamida Mutlaq haqiqatning asl mohiyatini idrok eta olmaydi" degan fikridan olingan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Ko'pburchakli shaklning doiraga aylanishi subyektning obyektga aylanishiga o'xshashdir. Subyekt-obyekt munosabatlarini bunday tushunish va izohlash panteistik qarashlardagi Xudo va inson o'rtasidagi munosabatlarni yangicha talqin qilishga ham ta'sir etdi. Kuzanskiy fikricha, inson butun borliqdagi Xudoni bilishga intiladi, buning natijasida insonning tabiati ilohiylashib boradi. Xudo esa insonning ichki olamida tajalliy eta boshlaydi. Natijada, inson ilohiy mavjudotga aylanadi. Xudo tabiatda o'zini qanday tajalliy etsa, inson ham Xudoni aynan shu shakllarda idrok etadi. Ibn al-Arabi fikricha, inson qalbida Parvardigor ilohiy fayzni "bu dunyoda qo'lga kiritgan ilmi miqdoriga qarab tajalliy etadi. Kuzanskiy yer bilan osmon, Xudo bilan tabiat o'rtasida chegara qo'yadigan g'oyalarga qarshi bo'lgani uchun ham o'rta asr sxolastikasi bilan aloqani uzmaydi, shuningdek, uning falsafiy g'oyalari panteizmning mistik ko'rinishida edi va bu borada o'zining qat'iy xulosalarini chiqaradi va "Xudo va olam borlig'i alohida, bir biridan ajralgan emas, balki ular bittadir" deb ta'kidlaydi Kuzanskiy.

G'arb panteizmning klassik vakili hisoblangan Benedekt Spinozaning panteistik qarashlariga, albatta, Dekartning dualizmi ham ta'sir qiladi. Spinoza Dekartdan farqli ravishda, Kuzanskiyning Xudo va olam borlig'i bir birini tashkil etuvchi zaruriyat va ikkala borliqning bir-birlariga bog'liq ekanligi haqidagi nazariyasini yanada optimallashtiradi va konkretlashtiradi. U substansiya, Xudo va tabiat tushunchalarini teng ma'noda qo'llab "Xudodan o'zga substansiya yo'q, bo'lishi ham mumkin emas, bo'lmaydi ham, bunday tushunchaning o'zi yo'q" [8, 359] degan qat'iy xulosaga keladi. Unga ko'ra, Xudo bu mutlaq substansiya ya'ni olamda hamma narsadan mustaqil va boshqa barcha narsalar u bilan chegaralangan mavjudlik. Bu chegaralashda hech bir narsani alohida, yakka holda tushunib bo'lmaydi, albatta u bir narsaga bog'liq holda deb bilinadi. O'sha chegara esa chegaralanuvchi narsa ta'rifining bir qismiga aylanadi. Xudo (Mutlaq haqiqat) ya'ni olamda analogi yo'q cheksiz substansiya, Uni na zamon, na vaqt chegaralay oladi, u yagona chegaralovchi. Xudo esa tabiatdan farqli bo'lishi mumkin emas, shuning uchun tabiat ham substansiyadir. Spinozaning monizm ta'limotida bu yaqqol ko'rinadi: hamma narsa bir va hamma narsa shu narsada tushuniladi.


Ibn al-Arabiyning "vahdat ul-vujud" ta'limotida substansiya, ya'ni Mutlaq Vujud (Xudo) o'zgarimas, biroq doimiy harakat va tajallida bo'ladi. Bu jihat Spinozaning qarashlaridan farqlanadi, chunki Spinoza ta'limotiga ko'ra, Xudoning atributlari ham mutlaq o'zgarimasdir. Ibn al-Arabi esa Xudoning yaratuvchilik harakati uning ajralmas mohiyati ekani va bu jarayon to'xtasa, "Xoliq" sifatining mazmuni yo'qolishini ta'kidlaydi. Borliqni to'xtovsiz harakatdagi okeanga qiyoslash mumkin. Okeandagi har bir to'lqin va mavjlar kabi borliq ham uzluksiz o'zgarib, har lahzada yangicha shakllarni namoyon qiladi. Aynan shu doimiy harakat va xilma-xillik kasrat olami – ko'plik dunyosining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Spinozaning substansiyasi o'z-o'ziga sabab va zaruriyatdir. Uning "vahdat ul-vujud"ga mos keluvchi fikri shuki, substansiya va uning atributlari cheksiz harakatda bo'lishi va ba'zi bir hodisalarning yakuni bor degani. Bu Ibn al-Arabiyning Xudo faqat o'z zotiga tegishli, u esa Xudoga aloqador, Alloh o'z zoti orqali sifatlarga, ular bilan esa borliqqa – shahodat olamiga tajalliy etadi degan g'oyasiga yaqindir. Islom falsafasidagi Mumkin ul-vujud – Mutlaq vujud, ya'ni Xudoning mavjudligi sababli mavjud bo'lgan narsa, hodisa va mavjudotlar Spinozani panteistik ta'limotida "moduslar" deb nomlanadi. Ular substansiya va uning atributlaridan ajralgan holda tashqaridagi o'zga sabablar tufayli ham mavjud hamda ular makon va zamonda o'zgarishda bo'ladi. Spinozaning "Xudo hamma narsadir" degan fikri, Ibn al-Arabiyning "vahdat ul-vujud" ta'limotidagi "Hamma narsa Xudo (U)dir" asosida yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, uning

“Barcha narsa substansiyadir”, ya’ni borliqdagi jamiki narsa Xudodir, degan fikri esa antitavhid shaklda bo’lib, islom panteizmidan mutlaqo farqli hisoblanadi.

**Xulosa.** O’rta asr falsafiy tafakkuri tomonidan yaratilgan dunyo manzarasini o’ziga xos "piramida" shaklida tasvirlasak: uning cho’qqisi Xudo ya’ni Mutlaq Haqiqat, poydevori esa olam (makrokosmos), ularni bog’lovchi qatlam bo’lmish inson (mikrokomos)dir. Ushbu piramidaning cho’qqisi bo’lmish Xudo o’zining poydevori hisoblangan olam (borliq) ni o’zida yaratadi, poydevor esa cho’qqining mavjud bo’lganligi hamda o’z mavjudligini bildirish uchun poydevorni o’ziga zamin qilish uchun yaratildi. (chunki Xudo hamma narsani o’z ichiga oladi va hamma narsada mavjud). Ushbu dunyo manzarasining ko’p muhokamaga sabab bo’lgan paradoksal jihati shuki, piramidaning cho’qqisi poydevorga erib ketishi, yana ham aniqlashtirsak, “butun piramidani o’z ichiga olishi” [10] hisoblanadi. Shu nuqtaga turlicha yondashuvdan qarash:

- 1) Islom ulamolarining nuqtai nazariga ko’ra, Xudoning yagonaligi va abadiyligiga shubha qilish shirkona falsafiy qarash sifatida baholanadi. Xudo mutlaq vahdat sohibidir, chunki ko’plik tushunchasi unga xos emas va ilohiy mohiyatiga mos kelmaydi.
- 2) Panteistik yondashuvdan qaralsa, xuddiki klassik naturalistik falsafaning fundamental g’oyasi bo’lmish, “Xudo va tabiat bir narsa” va “Xudo va tabiat bir birini tashkil etadi va taqozo etadi” degan dualistik qarashlarni tasdiqlaydi.
- 3) Muhyiddin Ibn al-Arabiyning “vahdat ul-vujud” falsafiy-diniy qarashlariga tayangan holda diqqat qaratsak, bu hech qanaqa kasrat yoki panteistik, dualistik g’oyalarni ifodalamaydi.


1-grafik



Ibn al-Arabiy uchun esa ushbu olamning paydo bo‘lishiga va mavjud bo‘lib turishiga asosiy sabab, bu Mutlaq Haq ya’ni Xudo. Lekin, borliq va Xudo bitta mohiyat emas, uning ta’limotida yakka kategoriyalardir. Uning ta’limotiga ko‘ra, Xudo har qanday isbotdan yuqorida va hech qanday tasdiqqa muhtoj emas. Uning yagona isboti, bu ozi, isbotlovchisi ham o‘zi. Xudo - sof nur, ezgulik yoki umum hamma narsa ayon bo‘luvchi zotdir. U o‘zidan o‘zga hamma moddiy va nomoddiy narsalar yaratuvchisi bo‘lgani uchun unga kasrat so‘zi sifatlar va xususiyatlar jihatidan xos. Uning alternativi va analogi yo‘q va hech qachon bo‘lmaydi ham.

Klassik panteizm namoyondalarining panteistik qarashlaridan farq qiladigan (shu o‘rinda, o‘xshash jihatlari ham mavjud, 1-grafik). Islom panteizmi – butun borliq birligi ta’limoti o‘z zamonasida va bugungi falsafa, tasavvuf olamida o‘zining bahsbopligi, ko‘plab tanqidiy mulohazalarga sabab bo‘lgani bilan mashhur bo‘lgan bo‘lsa ham, g‘oya jihatidan naqadar ahamiyatli ekanligi inkor qilib bo‘lmas faktlardandir.

1-grafik



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta Sharqning falsafiy tafakkuri: Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2009. – B.327.
2. Norboyev J.A. Muhyiddin Ibn al-Arabiyni Sharq musulmon olamida tutgan oʻrni va uning falsafasini Yevropaga transformatsiyasi: Maqola. – Toshkent: JCAR, 2024. – B 115-117.
3. Тримингем Ж. С. “Суфийские ордены в исламе”. – М.: София И Д Гелиос, 2002. – С.306.
4. Abdulhakim Sharʼiy Juzjoni. Tasavvuf va inson. – T.: “Adolat”, 2001. – B.25.
5. Muhyiddin Ibn al-Arabi. Al-Futuhot ul-Makkiya. 3-jild. – B.227.
6. Affifi A.E. The Mystical Philosophy Ibn ul-Arabi. – Cambridge: The Journal of Philosophy, 1938. - P.101.
7. Madelung, Wilferd & Knysh, Alexander D. (2000). Ibn ʻArabī in the Later Islamic Tradition: The Making of a Polemical Image in Medieval Islam. *Journal of the American Oriental Society* 120 (4):682.
8. Gʻarb falsafasi. – T.: “Oʻzbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati”, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004.
9. Смирнов А. В. Философская мысль исламского мира. – Москва, 2013.

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 6, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 6, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000